

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>J.Qodirov</b>	
Shaxsga yo'naltirilgan jismoniy tarbiya ta'limi jarayonida pedagogik monitoringni amalga oshirish omillari.....	99
<b>M.Hamidjonov, N.Shodilbekov</b>	
Futbolchilarning ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashning asosiy usul va vositalari.....	103
<b>B.Qurbonova</b>	
Talabalarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda moslashuvchanlik imkoniyatlarini oshirishni modellashtirish.....	107
<b>D.Xakimova</b>	
Innovatsion salohiyat pedagog faoliyatining ajralmas qismi.....	111
<b>B.Umarov</b>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagoglarning professional kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	114
<b>Sh.Ro'zaliyev</b>	
"Geymifikatsiya" va "Didaktik jarayonlar"ning metodik tavsifi .....	118
<b>F.Yuldashev</b>	
Ko'ngilli yong'in-qutqaruvchilarni o'qitishda interaktiv trenajyorlardan foydalanishning ahamiyati.....	123
<b>A.Rajabov</b>	
Mirbobo Naqshbandiy qalb zikri va uning turlari to'g'risida.....	129
<b>Z.Xamraqulov</b>	
Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilish asoslari.....	133
<b>S.O.Omonova</b>	
O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiroki .....	138
<b>A.T.Tuychiyev</b>	
Raqamli texnologiyalar davrida tanqidiy fikrlashning ahamiyati .....	142
<b>N.E.G'olibjon</b>	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari .....	149
<b>J.B.Hamraqulov</b>	
Talabalarda ekologik axloqiy kompetentlikni shakllantirish imkoniyatlari .....	154

## IQTISODIYOT

<b>M.Adxamov</b>	
Kichik mamlakatlarning milliy innovatsiya tizimlari raqobatchilik masalasi.....	158
<b>A.A.Oripov</b>	
Risklarni boshqarish tizimi asosida xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini baholash.....	161

## FALSAFA

<b>M.Qaxxarova, M.Raximshikova</b>	
Yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish va tarbiyalash mummosi .....	169
<b>A.Sufiyev</b>	
Tadbirkorlik madaniyatini oshirishning aksiologik va pragmatik omillari .....	175
<b>B.G'aniyev</b>	
Markaziy Osiyo mutafakkirlarining fuqarolik jamiyati haqida ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlari .....	181
<b>S.Yuldashev</b>	
Jamiyat transformatsiyalashuvining yangi ijtimoiy-madaniy usullari.....	186
<b>Sh.Usanov, E.Avazov</b>	
Millatlararo munosabatlar mustahkamlanishida Surxondaryo viloyat turkman milliy-madaniy markazining o'rni .....	190
<b>M.Choriyeva</b>	
"Shoxnoma"da diniy ta'limotlar.....	195
<b>K.Saydazimov</b>	
Baholash va normalar mantig'ida axloqiy qadriyatlar .....	199
<b>A.Mo'ydinov</b>	
Ma'rifatli jamiyatni qurish va ma'rifatli inson sensualistik qarashining mohiyati .....	204

**JINOYAT HUQUQINING O'QITILISHIDA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR  
BILAN HAMKORLIK QILISH ASOSLARI****ОСНОВЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ С ПРАВООХРАНИТЕЛЬНЫМИ ОРГАНАМИ В  
ОБУЧЕНИЕ УГОЛОВНОМУ ПРАВУ****FUNDAMENTALS OF INTERACTION WITH LAW ENFORCEMENT AGENCIES IN  
TEACHING CRIMINAL LAW****Zafarjon Xamraqulov Yigitaliyevich<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Zafarjon Xamraqulov Yigitaliyevich**– Qo'qon davlat pedagogika instituti, dotsent,  
falsafa doktori (PhD)**Annotatsiya**

Dunyo mamlakatlarining har biri o'z milliy huquqiy tizimiga ega bo'lib, ularning milliy-davlat, ma'muriy-hududiy tuzilishi, siyosiy boshqaruv tartiblari boshqalarnikidan muayyan darajada farq qiladi. Mazkur farqlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ham taalluqlidir. Fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatidagi xilma-xillik huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vakolatlari, huquq va majburiyatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. O'zbekiston Respublikasida ham huquqni muhofaza qiluvchi organlar davlat boshqaruv tizimida o'z o'rniga ega bo'lib, har bir organ qonunda belgilangan vakolatlar doirasida faoliyat yuritadi. Sohada xizmat qiluvchi xodimlar huquq-tartibotni ta'minlash bilan cheklanmasdan, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatining yuksalishiga ham o'z hissalarini qo'shishadi. Ular ta'limda o'z yordamlarini berishlari mumkin. Bundan talabalar kasbiy tayyorgarlik darajasi hamda ularning o'z kasbiga qiziqishini oshirishda foydalanish mumkin. Jumladan, jinoyat huquqi fanidan darslar tashkil etilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yish samarali ahamiyatga ega bo'ladi. Uning zaruriyati ushbu maqolada ochib berilgan. Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan uchrashuvlar tashkil etishda tavsiya etiladigan mavzular o'rin olgan.

**Аннотация**

Каждая страна мира имеет свою национальную правовую систему, а их системы национально-государственные, административно-территориальные и политические управления в определенной степени отличаются от других. Эти различия касаются и правоохранительных органов. Разнообразие правосознания и правовой культуры граждан влияет и на полномочия, права и обязанности правоохранительных органов. В Республике Узбекистан правоохранительные органы имеют свое место в системе государственного управления, и каждый орган действует в пределах полномочий, установленных законом. Сотрудники, несущие службу на местах, не ограничиваются правоохранительной деятельностью, но и способствуют повышению правосознания и правовой культуры населения. Они также могут помочь в образовании. Она должна служить повышению уровня профессиональной подготовки студентов, качества учебной деятельности и их заинтересованности в своей профессии. В частности, эффективным будет налаживание отношений с правоохранительными органами при организации занятий по предмету уголовное право. Его необходимость раскрыта в данной статье. Также есть рекомендуемые темы для организации встреч с правоохранительными органами.

**Abstract**

Each country in the world has its own national legal system, and their systems of national-state, administrative-territorial and political administrations differ to a certain extent from others. These differences also apply to law enforcement agencies. The diversity of legal consciousness and legal culture of citizens also affects the powers, rights and obligations of law enforcement agencies. In the Republic of Uzbekistan, law enforcement agencies have their place in the system of public administration, and each body operates within the powers established by law. Employees serving in the field are not limited to law enforcement activities, but also contribute to raising the legal awareness and legal culture of the population. They can also help in education. Therefore, a scientifically based qualitative methodology is of great importance in the teaching of legal subjects in modern education. It should serve to improve the level of professional training of students, the quality of educational activities and their interest in their profession. In particular, it will be effective to establish relations with law enforcement agencies when organizing classes on the subject of criminal law. Its necessity is disclosed in this article. There are also recommended topics for organizing meetings with law enforcement.

**Kalit so'zlar:** huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jinoyat huquqi, pedagogik ta'lim, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, jinoyat, jinoyatchilik.

**Ключевые слова:** правоохранительные органы, уголовное право, педагогическое образование, правосознание, правовая культура, преступление, преступность.

**Key words:** law enforcement agencies, criminal law, pedagogical education, legal awareness, legal culture, crime, criminality.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmonida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda O'zbekiston Respublikasining Xalq ta'limi vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Adliya vazirligi bilan birga bajarishi kerak bo'lgan vazifalar belgilangan. Unda ta'lim oluvchilarning huquqiy bilimlarni tizimli va uzluksiz oshirib borish, buning uchun o'quv dasturlarini puxta ishlab chiqish, huquqiy savodxonlikni oshirishga yo'naltirilgan o'quv materiallarini tayyorlash topshirig'i yuklatilgan. Shuningdek, ta'lim oluvchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha huquqni himoya qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishning samarali mexanizmlarini kengaytirish choralari ko'rish vazifasi belgilangan [1]. Zero, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyat huquqi fanidan dars o'qitilishidagi ta'siri benihoya kattadir. Mazkur organlarning har biri o'z yo'nalishi bo'yicha jinoyat huquqining muayyan normalari bilan ishlaydi. Shu bois, pedagogik ta'limda jinoyat huquqi fanining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'rnini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ilmiy adabiyotlarda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning funksiyalari to'g'risida tadqiqotlar o'rin olgan. Bu sohada M.H.Rustamboev, M.Usmonaliev, A.Davletov, Q.R.Abdurasulova, M.Maxbubov, M.A.Axmedshaeva, O.M.Mamadaliyev, U.A.Tuxtasheva, A.Allamuratov va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ularda ushbu organlarning qonun doirasidagi vakolatlari, organ xodimlarining huquq va majburiyatlari haqida xulosalar berilgan.

Jinoyat huquqi fanining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yilishi talabalar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda ijobiy natijalar berishi inobatga olinib, maqolada qiyosiy tahlil, mantiqiylik, savol-javob, tizimlilik singari usullardan foydalanildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini takomillashtirish ta'lim tashkilotlari uchun ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunday vazifani bajarishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish yaxshi samara beradi. Bu ta'limdagi huquqiy fanlarning o'qitilishida ham ko'zga tashlanmoqda.

Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda quyidagi maqsadlarga erishish nazarda tutiladi:

1. Talabalarga huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari bilan aloqalar yordamida jinoyat huquqi fani mavzularidagi amaliyotga doir ma'lumotlarni singdirish orqali ushbu fanning tarbiyaviy ahamiyatini kuchaytirish;

2. Jinoyat huquqi fanidan dars beruvchi professor-o'qituvchilarni jinoyat huquqiga doir amaliyot to'g'risidagi nazariy bilimlari va talabalarning jinoyat-protsessual amaliyot bo'yicha zaruriy bilim va tajribaga ega bo'lishishiga erishish;

3. Jinoyat huquqi fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlik xususiyatlari to'g'risida chuqur bilimlarga ega bo'lish;

4. MG'MAHT yo'nalishida talabalar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasidagi tadbirlarning yuqori saviyada o'tkazilishini ta'minlash;

5. Talabalarning jinoyat huquqi fanini o'rganishdagi kasbiy kompetentlik darajasini yuksaltirish, kreativlik qobiliyatlari va intellektual salohiyatini rivojlantirish uchun jinoiy-huquqiy amaliyot masalalariga jiddiy e'tiborni qaratish (bunda talabalar tomonidan jinoyat qonunchiligi va amaliyotiga yo'naltirilgan slaydlar, video-roliklar, multimedialar shaklidagi taqdimotlar tayyorlashni rag'batlantirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutiladi);

6. Talabalarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish orqali jinoiy hodisalar va boshqa huquqbuzarliklarga doir mustaqil ishlar, maqolalar va qisqa xabarlar tayyorlashga yo'naltirish;

7. Talabalar e'tiborini jinoyat huquqi fanining o'qitilishini tadqiq qilishga qaratilgan ta'limdagi yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion usullar haqida kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlar yozishni qaratish;

8. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish orqali talabalar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish ko'nikmalarini shakllantiruvchi g'oya va ibratli jihatlardan keng foydalanish;

9. Talabalar huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda surishtiruv, tergov, sud muhokamasi, jazoni ijro etishga bog'liq jinoyat-protsessual jarayonlar bo'yicha hujjatlar bilan ishlash tartiblarini o'rganishni tashkil etish;

10. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik aloqalari yordamida jinoyat huquqi fanining falsafiy va pedagogik jihatlarini, uni tashkil etishning samarali yo'llari hamda vositalarini o'rganishni yo'lga qo'yish.

Huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi maxsus vakolatli organlar davlat mexanizmi tarkibida alohida o'ringa ega. Ular haqida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 121-moddasi ikkinchi qismida shunday deyilgan: "Qonuniylik va huquqiy tartibotni, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jamoat tashkilotlari va fuqarolar yordam ko'rsatishlari mumkin" [2]. Konstitutsiyada belgilangan mazkur normaning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- huquqni muhofaza qilish faoliyati davlat, jamiyat va shaxs manfaatlarini g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoyalashga qaratiladi;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar davlat majburlov choralari va jazolash usullarini qo'llash vakolatiga ega;

- majburlov choralari qo'llash va jazolash huquqni muhofaza qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari zimmasiga yuklatiladi;

- huquqni muhofaza qilish faoliyati faqat qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi;

- huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi organlar davlat nomidan ish yuritadi.

Davlat organlari tizimida o'z o'rniga ega bo'lgan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning har biri qonunlar va qonun osti hujjatlarida belgilangan maxsus vakolatlari bilan bir-birlarining o'rnini to'ldiradi.

O'zbekiston Respublikasida sud huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga kiritilmagan. M.H.Rustamboev, U.A.To'xtashevalar sud organlarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga kiritilmaganlik sababi sifatida uning davlat hokimiyatining alohida tarmog'i ekanligi, shuningdek, uning faoliyat mazmuni odil sudlovni amalga oshirishdan iboratligi bilan izohlashgan [3:29]. Huquqshunos olim Otabek Toshev O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlariga quyidagilarni kiritgan: prokuratura, adliya organlari, ichki ishlar organlari, davlat bojxona xizmati organlari, davlat xavfsizlik xizmati organlari, Milliy gvardiya, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi [4]. Olimlarimizning ushbu fikrlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar haqida aniq tasavvurlar hosil qilishimizga yordam beradi.

Pedagogik ta'limda huquqshunoslik fanlaridan ta'lim oluvchilarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar haqidagi bilimlarini aniqlash maqsadida Qo'qon davlat pedagogika instituti MG'MAHT yo'nalishining 3-kurs talabalar o'rtasida so'rov o'tkazildi. Jinoyat huquqi fanining o'qitilishida ushbu organlar faoliyati bilan bog'liq masalalarni talabalar tomonidan yaxshiroq o'zlashtirish imkoniyatlarini bilish uchun tashkil qilingan so'rovda quyidagi savollar berildi:

1. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qaysi organlar kiradi?

2. Mazkur organlarning vakolatlarini bilasizmi?

3. Jinoyat huquqi fanining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ijobiy yordami tegadimi?

4. Jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari bilan nima mavzuda suhbat bo'lishini xohlaysiz?

5. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari bilan uchrashuv tashkil qilinsa, ularga qanday savol berishni istardingiz?

So'rovda respondentlarga javoblarga aniqlik kiritish uchun qo'shimcha savollar ham berildi. Aksar hollarda talabalar prokuratura, ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati, Majburiy ijro byurosi, Milliy gvardiyani tilga olish bilan cheklanishdi. Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va bojxona organlari talabalar tomonidan kamroq eslangan. Adliya tarkibiga kiruvchi organlar haqida bundan ham kamroq ko'rsatkich qayd etildi. So'rovimizdagi birinchi savol

pedagogik ta'limdagi MG'MAHT yo'nalishida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bag'ishlangan o'quv kursini o'qitishning zarurligini va tanlov fani sifatida o'quv rejasiga kiritish zarurligini ko'rsatib berdi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar haqidagi keyingi savollarga "Ha" degan javob berilsada, aslida unday emasligi oydinlashdi. O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari to'g'risida qonunlar qabul qilingan, qonun osti hujjatlari ishlab chiqilgan, ularda vakolatlar huquqiy normalar bilan mustahkamlab qo'yilgan bo'lishiga qaramay, talabalar tomonidan yaxshi o'rganilmaganligi aniqlandi. Javoblarda ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyaning, prokuratura va davlat xavfsizlik xizmatining vakolatlarini bir xil deb tasavvur qilinganligi ko'zga tashlandi. Transport, harbiy va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar xususida ham bilimlar kamligi sezildi. Bojxona organlari, Majburiy ijro byurosining vakolatlari masalasida nisbatan aniqroq javoblar olindi. Bu ikki organ funksiyalari haqida tiniqroq fikrlar mavjudligi ayrim talabalarning ular bilan bevosita munosabatlarga kirishgani hamda qanday funksiyani bajarishidan xabardorliklari bilan izohlandi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyat huquqi fanining o'qitilishida yordami tegishi mumkinligi haqidagi savolga barcha talabalar tomonidan ijobiy javob qaytarildi. Respondentlar tomonidan berilgan javoblar tahlili natijasida quyidagi omillar ijobiy natija uchun asos bo'lganligi to'g'risidagi xulosalarga kelindi:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining bilimlari talabalarning nazariy tushunchalarini mustahkamlaydi;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'zlari faoliyat yuritadigan sohasining haqiqiy mutaxassislari hisoblanadi;
- soha xodimlari jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga doir real voqealarni nazariyotchilarga qaraganda ko'proq biladi;
- hayotda ko'p uchraydigan jinoyatlarga aloqador muammolarning yechimlari haqida aniq javob bera olishadi;
- soha xodimlarining aniq ma'lumotlari darslardagi nazariy tushunchalarga qaraganda ancha qiziqarliroqdir;
- kelajakda ushbu sohalarga ishga kirish uchun xodimlardan kerakli ma'lumotlarni olish mumkin va boshqalar.

Respondentlar jinoyat huquqini o'qitilishida ilgari bevosita huquqni muhofaza qilish organlarida mehnat qilgan o'qituvchilar yanada yaxshiroq dars berishlarini e'tirof etishgan. Bunday o'qituvchilar darslik va qo'llanmalardagi nazariy bilimlarni real voqealar asosida tushuntirib berishlari mumkin. SHuningdek, talabalarning o'zlari guvoh bo'lgan jinoiy hodisalar haqidagi savollariga auditoriyadan tashqarida ham javob bera oladilar. Aynan shu jihat talabalar uchun qulay variant bo'lib, ular protsessual qonunchilik bo'yicha advokatga bormasdan turib, inoyat jarayoni to'g'risida oldindan o'z savollariga javob topa olishadi.

Navbatdagi savol jinoyat huquqining o'qitilishida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari bilan nima mavzuda suhbat bo'lishini xohlashlari bilan bog'liq bo'lib, respondentlar aksar hollarda o'z hayotlari davomida ko'rgan yoki eshitgan jinoiy hodisalarning yechimlariga bag'ishlangan mavzularni tilga olishdi. Bu ekstremizm va terrorizm, tergov amaliyoti, javobgarlikni og'irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar, sud tomonidan jazolarning qo'llanilishi, jazoning yengillashtirilishi, ishtirokchilik shakllari, korrupsiyaga qarshi kurash va boshqa mavzulardan iborat bo'ldi. Talabalarning huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari bilan uchrashuvlar o'tkazishni ko'proq tashkil etish haqidagi takliflar ko'p bo'ldi. Respondentlar soha xodimlari bilan har qanday mavzu o'zlari uchun foydadan xoli bo'lmasligini ta'kidlashdi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari bilan uchrashuv tashkil qilinsa, talabalarning ularga qanday savol bilan murojaat qilishlari haqidagi so'nggi savolga xilma-xil javoblar berildi. Ayrim talabalar kelajakda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga ishga kirish tartibi bilan bog'liq savollar berish masalasini ham tilga oldi. Shuningdek, xodimlar ishlayotgan tizimning tuzilishi, sohada ish yuritishning o'ziga xosliklari va xodimlarga beriladigan imtiyozlar va boshqa masalalar haqida suhbat o'tkazish maqsadga muvofiqligi ta'kidlandi.

Maqsadga erishish aniq va rejali harakatlarni amalga oshirishni talab qiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan aloqalarni faqat jinoyat huquqi fanidan dars o'tilishi jarayoniga jalb qilishdan tashqari, ushbu organlar bilan aloqalarni muntazamligini yo'lga qo'yish zarurligi oydinlashdi. Bunday aloqalarda tashkil etiladigan tadbirlarning mavzularini quyidagicha rejalashtirish maqsadga muvofiq deb topildi:

No	Tadbir mavzusi	Ishtirokchi organlar
1	Milliy huquq tizimida inson va fuqaro huquqlarini himoya qilish asoslari	Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi
2	Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qonun ustuvorligini ta'minlashdagi o'rni	Adliya organlari, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti
3	Jinoyat qonunchiligidagi o'zgarishlar	Prokuratura, davlat xavfsizlik xizmati organlari
4	Jinoyat tarkibi, jinoyatchining shaxsi va jinoyatning shakllari	Adliya organlari, davlat xavfsizlik xizmati organlari
5	Jinoiy javobgarlik va jazo choralarini qo'llash asoslari	Ichki ishlar organlari, davlat xavfsizlik xizmati organlari
6	Jinoyatda ishtirokchilik va voyaga yetmaganlar jinoiy javobgarligining xususiyatlari	Adliya organlari, ichki ishlar organlari
7	Surishtiruv, dastlabki tergov va sud majlisida yarashtiruv institutining qo'llanilishi	Prokuratura, ichki ishlar organlari
8	Shaxsga qarshi jinoyatlar va ularning oldini olish	Prokuratura, Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi
9	Tinchlik va insoniyat, mulkchilik va ekologiya sohasidagi jinoyatlarning xususiyatlari va ularning oldini olish	Davlat bojxona xizmati, Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti
10	Boshqaruv, jamoat xavfsizligi va harbiy sohadagi jinoyatlar va ularga qarshi kurash asoslari	Davlat xavfsizlik xizmati organlari, Milliy gvardiya
11	Ekstremizm, fundamentalizm va diniy aqidaparastlikka qarshi kurash	Davlat xavfsizlik xizmati organlari, Milliy gvardiya
12	Jinoyatchilikning oldini olishda profilaktik tadbirlarning ahamiyati	Adliya organlari, ichki ishlar organlari

Jinoyat huquqi fanidan talabalarning amaliy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish fanning fan dasturi, o'quv rejaları, darslik va qo'llanmalar asosida amalga oshiriladi. Nazariy bilimlar asosida har bir talaba o'z xatti-harakatlarini tartibga solish zarurligi singdiriladi. Samarali natijalarga erishish uchun ta'limda xilma-xillik bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

#### XULOSA

Tadqiqotlar talabalarning huquqni muhofaza qiluvchi organlarga qiziqishi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari bilan uchrashuvlardan so'ng talabalarning huquqiy bilimlarini yanada boyitish maqsadida mavzularga tegishli materiallarni kiritish, noaniq qolgan masalalarni sharhlash, muammolarni talabalar bilan munozara shaklida tahlil qilish, talabalarni kichik guruhlariga bo'lgan holda ular o'rtasida diskussiyalarni vujudga keltirish huquqi ta'lim rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik ta'limda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari bilan uchrashuvlar tashkil etish usulidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jamiyatda yuz berayotgan huquqbuzarliklar, turli shakllardagi jinoiy hodisalar haqida amaliy bilimlarning olishi bunday holatlarga nisbatan o'z munosabatining mohiyatini to'g'ri anglashi, hodisalarga to'g'ri baho bera olishi, o'zida bunday vaziyatlarda qanday harakat qilish ko'nikmalarining shakllanishiga olib keladi. Bularning barchasi O'zbekistondagi fuqarolik jamiyatining taraqqiyotiga munosib ulush bo'lib qo'shiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/4149765>
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2022. – B. 29.
3. Rustamboev M.H., Tuxtashva U.A. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Darslik. Tom-1. – T.: Ilm-ziyo, 2011. – B. 8-9.
4. Toshev O. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning funktsiya va vazifalarini qayta ko'rib chiqish lozim... Tahlil. Manba: <https://uza.uz/posts/231348>